

Egamberdiyeva Umrinisa Tursunqulovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Geografiya va geoaxborat tizimlar fakulteti,
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasida dotsent
Yusupova Sanobar Gafur qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Geografiya va geoaxborat tizimlar fakulteti magistranti

ZANGIOTA TUMANI DEMOGRAFIK JARAYONLARI

Annotatsiya: Zangiota hududidagi demografik holatni o'rganish uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rganish uchun zarurdir. Ushbu maqolada Zangiota tumanida vujudga kelgan demografik jarayonlar o'rganiladi. Zangiota tumanidagi demografik jarayonlar aholi soni, tug'ilish, o'lim va migratsiya kabi asosiy jihatlarni hisobga olgan holda tahlil qilinadi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi kabi rasmiy manbalar tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan.

Kalit so'zlar: yosh tarkibi, bandlik, demografiya, aholi soni, tug'ilish, o'lim, migratsiya.

Эгамбердиева Умриниса Турсункуловна
Национальный университет
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Факультет географии и геоинформационных систем,
доцент кафедры Экономической и социальной географии
Юсупова Санобар Гафур кизи
Национальный университет
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
магистр факультета Географии и геоинформационных систем

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ЗАНГИАТИНСКОГО РАЙОНА

Аннотация: В данной статье рассматриваются демографические процессы в Зангиатинском районе. Демографические процессы в Зангиатинском районе анализируются с учетом таких основных аспектов, как численность населения, рождаемость, смертность и миграция. Исследование основано на анализе статистических данных, предоставленных официальными источниками, такими как Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан.

Ключевые слова: возрастная структура, занятость, демография, население, рождаемость, смертность, миграция.

Egamberdieva Umrinisa Tursunkulovna
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Faculty of Geography and Geographic Information Systems,
Associate Professor, Department of Economic and Social Geography
Yusupova Sanobar Gafur qizi
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Master of the Faculty of Geography and Geographic Information Systems

DEMOGRAPHIC PROCESSES OF ZANGIOTA DISTRICT

Abstract: Studying the demographic situation in Zangiota region is necessary to study its socio-economic development. This article examines the demographic processes in Zangiota district. Demographic processes in Zangiota district are analyzed taking into account the main aspects such as population, birth, death and migration. The research is based on the analysis of statistical data provided by official sources such as the Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.

Key words: age structure, employment, demography, population, birth, death, migration.

Aholi soni mamlakat taraqqiyoti va farovonligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Aholining soni va tarkibi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga, uning innovatsion rivojlanish va faoliyatning turli sohalarida yuqori ko'rsatkichlarga erishish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Inson resurslarining miqdori va sifati mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini, turmush darajasi ko'rsatkichlarini, jahon bozorida kuchi va raqobatbardoshligini belgilaydi.

Toshkent viloyatining Zangiota tumanida demografik jarayonlarni o'rganish juda dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Buning bir necha sabablari bor: aholi soni, tuzilishi va tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash tuman rivojlanishini rejalashtirish, jumladan, yangi turar-joy majmualari, infratuzilma, ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Demografik jarayonlarni tahlil qilish, shuningdek, aholining kelajakdagi ehtiyojlarini bashorat qilish va shunga mos ravishda rivojlanish rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, aholining yosh tarkibini bilib, turli yosh guruhlari - bolalar, yoshlar, qariyalar uchun qanday xizmatlar va dasturlarni ishlab chiqish kerakligini aniqlash mumkin. Bu ijtimoiy adolatni ta'minlash va aholining barcha qatlamlari ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi

Aholi tarkibining asosiy belgilaridan biri yosh tarkibidir. Aholining yosh guruhlari bo'yicha ma'lumotlarini to'plash yoshlar, mehnatga layoqatli aholi va keksalar ulushi nisbatlarini aniqlash imkonini beradi.


Aholining jinsiy tarkibini o'rganish erkaklar va ayollar nisbatini aniqlaydi. Bu, ayniqsa, gender tengligi bilan bog'liq omillarni va har bir jinsga xos muammolarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Etnik tarkib: Aholining etnik tarkibini o'rganish tumanda yashovchi madaniy guruhlar va millatlarning xilma-xilligi haqida ma'lumotga ega bo'lishga yordam beradi.

Bandlik: Aholi bandligi tarkibini tahlil qilish turli yosh guruhlari va iqtisodiyot tarmoqlarida band va ishsizlarning ulushini aniqlash imkonini beradi. Bu aholining iqtisodiy faolligi va bandlik bilan bog'liq muammolarni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Aholi tarkibini tahlil qilish Toshkent viloyatining Zangiota tumanida aholining turli guruhlarini dinamikasi va xususiyatlarini o'rganishga imkoniyat yaratadi. Ushbu bilimlar aholining ehtiyojlari va talablarini hisobga olgan holda tegishli rivojlanish strategiyalari va dasturlarini shakllantirishga yordam beradi.


Zangiota tumani doimiy aholi soni bo'yicha Toshkent viloyatida 13- o'rinda turadi. Jami viloyat aholisining 6 % i shu tumanga to'g'ri keladi.



1-rasm. Hududlar bo'yicha jami aholi soni(yil boshiga; ming kishi).

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Doimiy aholi soni dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak 2010 yildan 2017 yilgacha ko'payib borgan. 2018 yilda tuman aholisi 193 ming kishi bo'lgan. 2023 yilda bu ko'rsatkich yana kamayib 167,2 kishi bo'lgan. Bunga sabab Tuman hududidan ba'zi yerlarning Toshkent shahriga o'tkazilishidir.




2-rasm. Zangiota tumani jami aholi soni(yil boshiga; ming kishi)

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Tugʻilish darajasining oʻzgarishi aholi tarkibiga sezilarli taʼsir koʻrsatishi mumkin. Tugʻilish koʻrsatkichi oshsa, aholi tarkibida yoshlarning ulushi ortadi. Bu oʻsib borayotgan yoshlarning ehtiyojlarini qondirish uchun taʼlim, sogʻliqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarga qoʻshimcha sarmoya kiritishni talab qilishi mumkin.

Tumanda tugʻilish jarayonini tahlil qiladigan boʻlsak 2010- yilda 7100 kishi tugʻilgan. Ammo 2012- yilga qadar pasaygan, 2014 yilga kelib eng yuqori koʻrsatkichga chiqqan (7271 kishi). Tugʻilishning pasayishi 2015 yildan kuzatilgan va 2018 yilgacha davom etgan. Yuqorida takidlaganimizdek tuman hududidan bir qismi Toshkent shahriga oʻtkazilishi munosabati bilan 2018 yildan tugʻilish kamaygan, 2022 yilda 4641 kishini tashkil qilgan. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida tugʻilganlar soni 4641 kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga (4806 kishi) nisbatan 165 taga kamaygan. Shunga mos ravishda tugʻilish koeffitsiyenti 27,7 promilleni tashkil qilgan.




3-rasm. Zangiota tumanida tugʻilganlar soni (yilda; kishi)

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi maʼlumotlari.

Oʻlim darajasining oʻzgarishi ham aholi tarkibiga taʼsir qiladi. Agar oʻlim darajasi pasaysa, katta yoshdagi guruhlar koʻproq miqdorda namoyon boʻladi. Bu sogʻliqni saqlash, pensiya taʼminoti va qariyalarni qoʻllab-quvvatlash bilan bogʻliq vazifalarni keltirib chiqaradi.

Zangiota tumanida qayd etilgan o'lim holatining asosiy qismi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, o'simtalardan, nafas olish a'zolari kasalliklaridan vafot etganlar hissasiga to'g'ri keladi.


2022- yil yanvar–dekabr oylarida 1095 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 6,5 promilleni tashkil etdi. Eng kam o'lim ko'rsatkichi 2019 yilga to'g'ri keladi(960 kishi). 2020 yildagi pandemiya sababli viloyatning boshqa tumanlaridagi kabi o'lim ko'rsatkichi ancha ortgan va 1405 kishini tashkil qilgan. 2021 yilda bu ko'rsatkich yana ortib 1482 kishiga yetgan.



4-rasm. Zangiota tumanida o'lganlar soni (yilda; kishi)

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Tumanda o'lganlarning jinsiy tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak 2022 yilda o'lganlar tarkibida erkaklarning ulushi yuqoriroq. Ayollar 460 kishi erkaklar 635 kishini tashkil qiladi.



5-rasm. Zangiota tumanida o`lganlar soni (2022 yilda; kishi)

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

O`rtacha umr ko`rish davomiyligi, oila tarkibidagi o`zgarishlar va jinslar nisbati kabi demografik tendentsiyalarni o`rganish ham aholi tarkibidagi o`zgarishlarni hisobga olishga yordam beradi.

Respublikamiz barcha hududlarida bo`lgani kabi tumanda ham meditsina xizmatini va aholining turmush darajasining yaxshilanishi, kishilarning tibbiy savodxonligining ortishi o`rtacha umr ko`rish davomiyligining ortishiga sababchi bo`lmoqda.

Migratsiya oqimlari aholi tarkibiga ham ta`sir qiladi. Boshqa mintaqalar yoki mamlakatlardan kelgan migrantlar oqimi bilan muayyan etnik guruhlarining nisbati o`zgarishi mumkin. Bu aholining hudud bo`ylab bir tekis taqsimlanishiga va ijtimoiy xizmatlarga bo`lgan ehtiyojga ham ta'sir qiladi.

Zangiota tumanidagi migratsiya jarayonlari hududning yosh tarkibi va demografik holatiga ta`sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Bu hudud O`zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahriga chegaradosh bo`lib, mamlakatning migratsiya uchun jozibador joylaridan biri hisoblanadi.

Zangiota tumaniga ko`chib kelayotganlarning asosiy qismi O`zbekistonning boshqa hududlari, shuningdek, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston kabi MDH


davlatlaridan kelganlar hisoblanadi. Aksariyat muhojirlar hududga ish izlab, yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida keladi.

Yoshlarning qishloqlardan Toshkent kabi shahar atrofiga ko‘chishi ham tuman aholisining yosh tarkibiga ta’sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Buning sababi, yoshlarning katta shaharlarda bilim olishga intilishi va ish topishi qishloqlarda yoshlar salmog‘ining kamayishiga olib keladi.

Bundan tashqari, migratsiya mintaqadagi demografik jarayonlarga, masalan, tug‘ilish va o‘limga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, migrantlar ulushi yuqori bo‘lgan hududlarda tug‘ilishning pasayishi kuzatilishi mumkin.

Demak, migratsiya jarayonlari Zangiota tumanining yosh tarkibi va demografik holatini tahlil qilishda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan muhim omil hisoblanadi.

Zangiota tumani migratsiya jarayonlarini tahlil qiladigan bo‘lsak tumanga ko‘chib keluvchilar 2010- 2011- yillarda juda kam bo‘lgan. Tumanga ko‘chib keluvchilar salmog‘i 2012- yilda oshgan va bu ko‘rsatkich 2018 yilgacha davom etgan. 2018-2019 -yilda ko‘chib keluvchilar ming kishiga kamaygan. 2020- yildan yana ko‘payishni boshlagan 2021- yilda esa eng yuqori ko‘rsatkichga 3084 kishiga yetgan.




6-rasm. Zangiota tumaniga ko‘chib kelganlar soni (yilda; kishi)

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Zangiota tumanidan ko‘chib ketganlar soni ham 2012 yildan boshlab oshib borgan bu jarayon 2018 -yilda nisbatan pasaygan. 2022 -yilga kelib ko‘chib


ketganlar soni 6519 kishiga yetgan. Migratsiya saldosini hisoblaydigan bo'lsak 2022 yilda minus saldo bilan 4798 kishiga teng bo'lgan.



7-rasm. Zangiota tumanidan ko'chib ketganlar soni (yilda; kishi)

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.


Toshkent viloyati bo'yicha nikoh tuzish koeffitsiyentining 2022 -yilda avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Nurafshon shahar (1,7 promillega) da kuzatiladi. Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Ohangaron shahar (0,5 promillega) O'rtachirchiq tumanida 3,5 promille kuzatiladi. Viloyat bo'yicha nikoh tuzish 7,8 promillega teng. Zangiota tumanida nikoh tuzish 8,1 promillega teng bo'lib viloyat bo'yicha to'rtinchi o'rinda. Tuman aholisining bir qismi 2018 - yilda Toshkent shahriga o'tkazilishi bilan tuman demografiyasida o'zgarish kuzatilgan. Shu sababdan demografik o'zgarishlarni o'rganish uchun 2018 yil ma'lumotlariga taqqoslaymiz. Shu yili nikoh tuzish 1591 birlikka teng bo'lgan bo'lsa 2022- yilda 1361 birlikka teng bo'lgan, bu ko'rsatkich 230 taga kamaygan.



8-rasm. Zangiota tumanida tuzilgan nikohlar soni (2022-yilda; birlikda)

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida 378 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 2.3 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan o'zgarish kuzatilmagan (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 2,3 promille bo'lgan). Zangiota tumani ajralishlar ko'rsatkichi bo'yicha viloyatda Qibray tumanidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.



9-rasm. Nikohdan ajralishlar soni (yilda; birlikda).

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Tadqiqot natijalari: Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda Zangiota tumanida aholi soni sezilarli darajada kamaygan. Tug'ilish darajasi barqaror bo'lib qolmoqda.

Tumanning iqtisodiy rivojlanishi uchun demografik jarayonlarni tahlil qilish ham muhimdir. Demografik jarayonlar haqidagi ma'lumotlar sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlarini rejalashtirish uchun zarurdir. Aholining tarkibi va uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ushbu xizmatlarning mavjudligi va sifatini ta'minlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilishi mumkin.

Umuman olganda, Toshkent viloyatining Zangiota tumanida demografik jarayonlarni o'rganish rejalashtirish va rivojlantirishning ajralmas qismi hisoblanadi. U resurslardan samarali foydalanish va odamlarning sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari. 2010-2022 yillar.
2. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. 2010-2022 yillar.